

3- mavzu: Zamonaviy  
o'qitish vositalari va  
ulardan samarali  
foydalanish metodikasi

## Reja



1.

- Zamonaviy o‘qitish vositalari turlari va ularning tasniflanishi

2.

- O‘qitishning texnik vositalarining vazifalari

3.

- Zamonaviy o‘qitish vositalariga qo‘yiladigan talablar va ularning mazmuni

*O'qitish vositalari* deganda o'quv jarayonining xilma-xil materiallarini va qurollarini tushunish lozim bo'lib, ulardan foydalanish tufayli o'qitishning qo'yilgan maqsadlariga ancha muvaffaqiyatli va oqilona qisqa vaqtda erishiladi, vositalarning bosh didaktik vazifasi – o'quv materialining o'zlashtirilishini tezlashtirish, ya'ni o'quv jarayonini yanada samarali tavsiflarga yaqinlashtirishdir.

**Vosita** – ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchiga axboratlarni yetkazib berishda ko’rgazmalilikni ta’minlovchi jihozlar vajmuasi.

**Vosita** – ma’lum ishni bajarish yoki faoliyatini amalga oshirishda qo’llaniladigan moslomalar, qurollar, qurulumalar majmuasi.

**Vosita** – Biror maqsadga erishish yoki biror ishni amalga oshirish uchun dastak bo’lib xizmat qiladigan narsa qurol. Dastak – biror harakat uchun tayanch qilib olingan yoki tayanch bo’lib xizmat qiluvchi narsa.

***O‘qitish vositalari*** - o‘quv muassasasining material-texnik ta‘minlanishining tarkibiy qismi bo‘lib, talabalarda zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, ularning ta‘limiy bilish, o‘rganish, ilg‘ash faoliyatini boshqarish. barkamol rivojlantirish, tarbiyalash uchun o‘quv-tarbiyaviy jarayonida foydalaniladigan materiallar tizimidir.

O'qitish vositalarini shartli ravishda o'qitish vositalariga va ta'lim vositalariga bo'lish mumkin.

O'qitish vositalaridan asosan o'qinuvchi o'quv materialini tushunturish uchun foydalaniladi

Ta'lim vositalaridan esa o'quvchilar uni o'zlashtirish uchun foydalanishadi.

O'qitish vositalari hilma-hil bo'lib, uning asosiga qo'yilgan belgilariga qarab quydagicha tasniflanish mumkin

***Ob'ektlar tarkibi bo'yicha*** moddiy (xona, jihozlar, mebel, kompyuterlar, dars jadvali hamda ideal (bekami - ko'st) -sonli modellar, xayoliy tajribalar, obrazli ko'rinish, olam modeli va boshqalar;)

***Manba ko'rinishi bo'yicha*** - sun'iy (priborlar, rasmlar, darsliklar) va tabiiy (natural ob'ektlar, preparatlar, gerbariylar);

***Murakkabligi bo'yicha*** - oddiy (namunalar, modellar, xaritalar) va murakkab (videomagnitafonlar, kompyuterlar seti);

***Foydalanishi bo'yicha*** dinamikli (video) va statistik (kodopozitivlar);

***Tuzilish xususiyatiga qarab*** - tekis (kartalar), xajmli, (maketlar), aralash (er modeli), virtualli (multimediya dasturlari);

***Tasir etishi xarakteriga qarab*** - vizual (ko'rinishli) - diagrammalar demonstratsiya priborlari, audioalbom, magnitfoilar, radio) ovozli ko'rinishli (televizorlar, videofilmlar);

***Axborotlarni tashishi yoki berishi bo'yicha*** - qog'ozli (darsliklar kartotekalar), magnit optimli (filmlar), elektronli (kompyuter dasturlari), lazerli (SD - ROM);

***Ta'lim mazmuni bo'yicha*** - dars darajasidagi o'qitish vositalari (matnlar va boshqalar) fan darajasidagi (darsliklar) o'qitish jarayoni darajasida (o'quv kabinetlari)



Bosma  
asosdagi  
vositalar

O'quv  
jarayonining  
yordamchi  
vositalari

O'quv  
ko'rgazmalilik  
vositalari

O'Vlari  
gurulari

Amaliy  
harakatlarni  
amalga oshirish  
vositalari

O'qitishning  
texnik  
vositalari



***O‘quv jarayonining yordamchi vositalari*** – o‘quv jarayonini jihozlashning zarur tarkibiy qismi, lekin ular didaktik vazifalarni bajarmaydi. Ularga doska, bo‘r, qog‘oz, o‘quv qurol-yarohlari, to‘suvcchi qurilmalar va hakoza kiradi.

***Sinf doskasi*** – o‘quv materialini vizual namoyish qilishning an’anaviy va qulay vositasidir. Undan o‘quv materialining asosiy tayanch nuqtalarini belgilashda yoki biror narsani tez yozish lozim bo‘lganda foydalanish juda qulaydir. Bundan tashqari, sinf doskasi ta’lim muassasasining har bir o‘quv xonasida mavjud.

**Doska-stend** – mashg‘ulotlarda o‘quv munozalari, aqliy xujum, guruh ishlari va boshqa muhokamalar natijalarini xujjatlash tirishda foydalaniladigan o‘qitish vositasidir. Bunda stendga o‘sha kattalikdagi qog‘oz qo‘yiladi va unga turli rangdagi hamda shakldagi kartochkalar yopishtiriladi. Mashg‘ulot davomida stendga mazkur kartochkalar yordamida ilovalar, tuzilmalar, sharhlar va shu kabilarni tuzish mumkin. Uning afzalligi shundaki, kartochka (ilova, tuzilma, sharh)lar joylashuvini hoxlagan vaqtda o‘zgartirish imkoniyati mavjud.

**Flipchart doska.** Flipchart doska sinf doskasiga juda o'xshashligiga qaramasdan, unda ko'pgina farqlar ham mavjud. Flipchartning eng asosiy qulayligi – bu matnni o'chirmasdan yozib ketaverish imkoniyatining borligi, ya'ni joy etishmasligidan yozilgan yozuvlarni o'chirishga hojat yo'q, faqat etarlicha qog'oz bo'lishi talab etiladi. Bunda barcha fikr-mulohazalarni saqlash mumkin, hatto bir necha kundan so'ng bu qog'ozni yana osib qo'yish va munozarani davom ettirish mumkin. Flipchartning boshqa qulayligi, butun guruh ishining natijalarini bir paytda ko'rish, taqqoslash imkoniyati mavjudligidadir.

**Pinbord doskasi.** “Pinbord” inglizcha soʻz boʻlib, (pin-mahkamlash, bord-doska) doskaga mahkamlash degan maʼnoni anglatadi. Qoidaga koʻra, pinbord doskasi ustiga oʻrash qogʻozi tortiladi va qoʻshimcha kerakli material sifatida turli rang va shakldagi kartochkalar boʻlishini talab qiladi. Ular pinbord doskasiga ignalar bilan mahkamlanadi. Kartochkalar maxsus rangli flomasterlar yoki markerlar bilan yoziladi. Bu vosita asosan yigʻilishlarda muhim oʻrin egallaydi, chunki bu vosita yordamida qarorlar, muammolarni ishlab chiqish va guruhliy bahs-munozaralarni boshqarishni koʻrgazmali qilish mumkin.

funksional



pedagogik

**O'qitishning  
texnik vositalariga  
qo'yiladigan  
talabalar**

ergonomik

iqtisodiy

estetik



**Funksional talablar** – apparaturaning zarur ish tartiblarini ta'minlash qobiliyati (tovush balandligi va ovoz sifati, mashg'ulotni o'tkazish uchun qayta zaryadlash minimumi bilan etarli bo'lgan audiovizual vositalar kassetalarining sig'imi; priborning universalligi).

**Pedagogik talablar** – texnik vositalar imkoniyatlarining o'quv tarbiyaviy jarayonlarining zamonaviy talablarga mos keluvchi shakllari va metodlariga mos kelishi.

**Ergonomik** – foydalanishning qulayligi va xavfsizligi; tayyorlashda va apparat bilan ishlashda operatsiyalarning minimal miqdori; shovqin darajasi; ko‘rib chiqish, ta‘mirlash, tashish qulayligi.

**Estetik** – shaklning uyg‘unligi (vazifasining yaqqol ifodalanishi, miqyosi, o‘lchovdoshligi); kompozitsiyasining yaxlitligi, tovar ko‘rinishi.

**Iqtisodiy** – texnik vositalarning yuqori sifatligi va tiniqliligida qiymatining nisbatan arzonligi.



*O‘TVning vazifalaridan* birinchisi – kommunikativ, axborotni uzatish vazifasi.

Ikkinchisi – boshqaruvchi, o‘quvchilarni topshiriqlarni bajarishga va bajarilishini tashkil etishga tayyorlashni nazarda tutadi

Uchinchisi – kumulyativ, ya’ni o‘quv va o‘quv metodik axborotni saqlash xujjatlash va tartibga solish.

To‘rtinchisi- ilmiy tadqiqot vazifasi, o‘quvchilarning tadqiqot maqsadi va o‘qitishning texnik vositalaridan foydalanish, axborotni to‘plash, uzatish mazmuni va shakllarini modellashtirish variantlarini izlash va hokozolar bilan bog‘liq.

E'TIBORINGIZ UCHUN

RAYMAT